

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH METODOLOGIYASI

Botirova Dilorom Narkuzievna

Bank-moliya akademiyasi magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10684480>

Annotatsiya. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi ko‘p hollarda banklar ishonchliligi bilan hamohang ravishda o‘rganilishi va ko‘rib chiqilishi bir qancha tadqiqotlarda aniqlandi. Shu bois, biz tijorat banklari yoki har qanday xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi yuzasidan tadqiqotlarni chuqur o‘rganishga harakat qilamiz. Ushbu tushunchalardan farqli jihatlar, olimlarning tijorat banklari moliyaviy barqarorligi xususidagi bildirgan nazariy qarashlari va metologik asoslarini tadqiq etishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy tahlil, ishonchlilik, tijorat banki aktiv va passivlari, likvidlik.

METHODOLOGY FOR ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS

Abstract. Several studies have found that the financial stability of commercial banks is in many cases studied and considered in harmony with the reliability of banks. Therefore, we try to delve into the research of financial stability, reliability of commercial banks or any business entities. We will try to study the theoretical views and methodological foundations expressed by scientists regarding the financial stability of commercial banks, in contrast to these concepts.

Keywords: commercial bank, financial stability, economic analysis, reliability, assets and liabilities of a commercial bank, liquidity.

МЕТОДИКА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Аннотация. В нескольких исследованиях было обнаружено, что финансовая устойчивость коммерческих банков во многих случаях изучается и рассматривается в гармонии с надежностью банков. Поэтому мы стараемся углубляться в исследования финансовой устойчивости, надежности коммерческих банков или любых хозяйствующих субъектов. Мы стараемся изучить теоретические взгляды и методологические основы, выраженные учеными в отношении финансовой устойчивости коммерческих банков, в отличие от этих концепций.

Ключевые слова: коммерческий банк, финансовая устойчивость, экономический анализ, надежность, активы и пассивы коммерческого банка, ликвидность.

Har qanday xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy tahlili va uning asosiy vazifalaridan biri – bu sub‘yekt moliyaviy ishonchliligi va barqarorligini baholash ekanligi aniqlanadi. Shu bois, ishonchlilik, barqarorlik tushunchalari va tijorat banklari faoliyatini baholash va tahlil etish uslublari yuzasidan umumiy yondoshuvlar talab etiladi. Eng avvalo, aynan, ushbu ikki tushunchalarni asoslash va farqli jihatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Ba’zi manbalarda keltirilishicha, xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar moliyaviy barqarorligi ular moliyaviy mustaqilligi, sub‘yektlar faoliyati doimiyligi va bardavomligini ta’minlashda o‘z mablag‘larini mustaqil tasarruf etishi, shuningdek, moliyaviy barqarorlik bir qancha ko‘rsatkichlar

tizimi asosida baholanishi aniqlanadi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy barqarorligini baholashda qo'shimcha ravishda aktivlar sifati va strukturasi ham katta ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, shu jumladan, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash yuzasidan bir-birini to'ldirsada, lekin ularni umumiy integral baholashini nazarda tutmaydi. Shu bilan birga, ishonchlilik va moliyaviy barqarorlik o'rtaida hech qanday aloqadorlik va bog'liqlik keltirilmaydi.

V.G. Artemenko o'z ilmiy ishlarida barqarorlikni to'lov qobiliyati bilan bog'laydi hamda absolyut va bir qancha ko'rsatkichlar asosida ular moliyaviy barqarorligini baholashni nazarda tutadi. To'lov qobiliyatini xo'jalik yurituvchi sub'yektlar to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni pul oqimlari tahlili asosida baholanadi degan xulosalarni ilgari suradi. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichlar tizimida banklar barqarorligi bilan ular ishonchliligi o'rtaida aloqadorlik mavjud emasligi ko'rindi.

O.V. Efimova tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqa ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur ekanligini tavsiya etadi. Ushbu umumlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimiga olimning fikricha, kompleks ravishda banklar kapitalini oshib borishini ko'rsatuvchi kapital rentabelligi ko'rsatkichini, ikkinchi ko'rsatkich sifatida kapitalning yalpi passivlar hajmidagi ulushini, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka baho berishda aktivlar strukturasi, kapital aylanmasi, rentabellik, doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarni solishtirilish orqali aniqlash lozim degan xulosalarni beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda, banklar moliyaviy barqarorligida kapital etaliligi va rentabellik darajasi, kapitalning aktivlardagi ulushi orqali moliyaviy barqarorlikka baho berish mumkin deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi tadqiqotlardan o'rganilgan olimlar tomonidan tadqiqotlarida ishonchlilikni alohida ko'rsatkichlar bilan ajratib ko'rsatilmagan bo'lsada, uni moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi bilan o'zaro bog'liq degan xulosa sifatida qarashmoqda.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini kapital etariligi, uning rentabelligi va aktivlarga nisbati, shuningdek, moliyaviy barqarorlikka ijobjiy ta'sir etuvchi likvidlilik, to'lov qobiliyati, rentabellik va ishonchlilik ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O.A. Tarasenko va E.G. Xomenkolarning fikricha tijorat banklari moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimiga: likvidlilik, aktivlar sifati, kapitalning holati va daromadlilikni kiritishadi. Mazkur qarashlarga qo'shilamiz, lekin mualliflar banklar risklilik darajasiga e'tiborni chetda qoldirishgan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini o'rganish, mazkur metodologiyalardan tegishli xulosalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, biz eng avvalo, Xalqaro valyuta fondi tomonidan tavsiya etilgan indikatorlar va ularning ahamiyatli jihatlarini ko'rib chiqamiz. Xalqaro valyuta fondi asosiy va tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan 39 ta Moliyaviy barqarorlik (Financial Soundness Indicators - FSI) ko'rsatkichlarini chop etib keladi. 39 ta moliyaviy barqarorlik indikatorlaridan 12 tasi aosiy indikatorlar bo'lsa, 27 tasi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan indikatorlar hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik asosiy ko'rsatkichlari qatoriga: kapital etarlilik ko'rsatkichlari, aktivlar sifati, foya va rentabellilik, likvidlilik, bozor riskiga sezgirlik darajasi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olsa, tavsiyaviy xarakteriga ega bo'lgan ko'rsatkichlar qatoriga banklar, shuningdek, boshqa moliyaviy muassasalar, korporativ kompaniyalar, xonadon xo'jaligi, bozor likvidligi, ko'chmas mulk bozoriga mo'ljallangandir.

1-jadval

"Moody's" xalqaro reyting agentligining tijorat banklari moliyaviy barqarorligini aniqlash metodologiyasi

Moliyaviy ko'rsatkichlar	Banklarning toifalari				
	A	B	C	D	E
Zaxiralashgacha bo'lgan foyda miqdorining bank riskka tortilgan o'rtacha aktivlari summasiga nisbatani	3,5% va undan yuqori	2,4%-3,5%	1,4%-2,4%	0,5%-1,4%	0,5% va undan past
Sof foydaning riskka tortilgan o'rtacha aktivlar umumiyligi summasiga nisbatani	2,0% va undan yuqori	1,7%-2,0%	1,0%-1,7%	0,3%-1,0%	0,3% va undan past
(Bozor fondlari – likvidli aktivlar) / Jami aktivlar x 100%	-10%	-10%-0%	0%-10%	10%-20%	20 % va undan yuqori
Birinchi darajali kapital etarliligi, foizda	10% va undan yuqori	8%-10%	6%-8%	4%-6%	4 % past
Foydalanimagan kapitalni riskka tortilgan o'rtacha aktivlar umumiyligi summasiga nisbatani, foizda	7% va undan yuqori	5,5%-7,0%	4,0%-5,5%	2,5%-4,0%	4 % past
(Xarajatlar/Daromadlar)x 100%	45 foizdan past	45%-55%	55%-65%	65%-80%	80% va undan yuqori
(Muammoli kreditlar/ Yalpi kreditlar) x 100%	0,8 foizdan past	0,8%-2,0%	2,0%-5,0%	5,0%-12,0%	12% va undan yuqori
Muammoli kreditlar/(Aktsiyadorlik kapitali + kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni qoplash zaxirasi), foizda	10 foizdan past	10%-20%	20%-30%	30%-50%	50% va undan yuqori

Manba: Рейтинг финансовой устойчивости банков: методологии присвоения рейтингов по глобальной шкале. Пер. с англ. – Moody'sInvestorsService, 2007. – С. 30.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan 2001 yildan e'lon qilinayotgan bo'lsa, bugungi kunda uning butun dunyo davlatlarida reytingi e'lon qilib kelinadi.

2-jadval

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash metodikalarining solishtirma jadvali

№	Ko'rsatkichlar nomi	Rossiya (Markaziy bank) banki metodikasi	"Ekspert RA" agentlik metodikasi	"RBK" reyting agentligi metodikasi
1.	Bank kapitali	Bank kapitali etarliligi ko'rsatkichi. Umumiy kapital etarlik ko'rsatkichi.	Kapital etarliligi. Moliyaviy koeffitsientlar. Kapital sifati koeffitsienti.	Kapital etarliligi, sof bank kapitali hajmi.
2.	Bank aktivlari	Kredit portfeli sifati. Aktivlar sifati. Muddati o'tgan kreditlar. Shakllangan zaxiralar hajmi. Yirik kredit risklari kontsentratsiyasi.	Muddati o'tgan qarzdorlik. Olingen ta'minot hajmi. Yaratilgan zaxiralar hajmi.	Sof aktivlar hajmi. Muddati o'tgan qarzdorlik hajmi. Kreditlar bo'yicha yaratilgan ehtimoliy yo'qotishlar hajmi. Muddatidan ilgari qaytarilgan kreditlar hajmi.
3.	Bank likvidliligi	Likvidlilik koeffitsientlari. Majburiyatlarning muddatiga ko'ra tasnifi. Banklararo kredit resurslari bozoriga qaramlik darajasi. Vekselda majburiyatlar va uning riski.	Likvidlilik koeffitsientlari va banklararo kredit resurslari bozoriga bankningqaramlik arajasi.	Likvidlilik koeffitsientlari. Aktiv va passivlar farqi va boshqalar.
4.	Bank majburiyatlari	-	-	Banklararo mablag'lar jalb etish holati. Qarz majburiyatlarining ulushi. Jismoniy shaxslar majburiyatlari ulushi.
5.	Bank operatsiyalari daromadligi va rentabelligi	ROA, ROE. Daromad va xarajatlar strukturasi. Sof foizli marja.	ROA, ROE, sof foizli marja.	ROA, ROE. Sof foizli marja va boshqalar.
6.	Menejment	-	Daromad va xarajatlarnisolishtrish, sof foyda	-

			tarkibi barqarorligi va boshqalar.	
7.	Qo'shimcha	-	-	Bank valyuta pozitsiyasi. Balansdan tashqari majburiyatlari hajmi.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining maqsadi davlatlar moliyaviy tizimini makroprudentsial tahlil qilish orqali joriy moliyaviy holatni aks ettirish, XVF aa Jahon banki tomonidan moliyaviy sektorni baholash Dasturini (Financial Sector Assessment Programm—FSAP) amalga oshirish va mamlakatlar moliyaviy tizimi barqarorligini baholash bo'yicha hisobot nashrlari (Financial System Stability Assessment—FSSA) e'lon qilish, mamlakat moliyaviy muassasalarinazorat qilish, kontragentlar, xonadon xo'jaliklari barqarorligini baholashga mo'ljallanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan birga xalqaro reyting kompaniyalarining tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasi katta ahamiyat kasb etadi.

Navbatda biz "Moody's" xalqaro reyting agentligi orqali banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini keltiramiz.

1-jadval ma'lumotlaridan, Moody's xalqaro reyting agentligi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy beshta ko'rsatkichlardan foydalanmoqda. Bular: foydalilik darajasi, likvidlilik holati, kapitalning etarliligi darajasi, samaradorlik va aktivlarning sifati. Bu esa, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Rossiya Markaziy banki normativ hujjalariiga nazar soladigan bo'lsak, ularda tijorat banklarini moliyaviy barqarorligini baholashni nazarda tutmaydi, aksincha tavsiyaviy xarakterga ega iqtisodiy me'yordi asosida banklar faoliyatini tartibga solib boradi.

Xorijiy davlatlar tajribasida reyting agentliklarining tijorat banklari moliyaviy barqarorligini aniqlash va uni tahlil etib borishlarida katta ahamiyat kasb etadi va eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

2-jadval ma'lumotlaridan Rossiya Federatsiyasi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash metodikalari natijasida Markaziy bank (Rossiya banki), "Ekspert RA", "RBK" reyting agentliklari ma'lumotlari deyarli o'xhash va bir-birini to'ldiruvchi ko'rsatkichlar asosida banklar moliyaviy barqarorligini aniqlashi ko'rindi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlar asosida alohida olingan tijorat banklari faoliyatini tahlil etish va ularga reyting berishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Banklari Asotsiatsiyasi huzurida 1996 yilda "Ahbor-reyting" reyting agentligi tashkil etilgan bo'lib, u asosan unga a'zo tijorat banklari asosiy ko'rsatkichlari va balans ma'lumotlar tahlili asosida ularning reytinglari, renkingini o'rganadi va natijalarini e'lon qilib boradi.

Mazkur reyting agentligi tijorat banklari reytingini aniqlashda asosan quyidagi metodologiyadan foydalanadi:

- mavjud tijorat banklari kapitali hajmidan kelib chiqib, ularni "yirik", "o'rta" va "kichik" banklarga ajratadi va ularning reytingini aniqlaydi. Reytingda asosan banklar yalpi aktivlarining

o‘zgarish dinamikasi, kredit portfeli, banklar kapitali, daromadlari va xarajatlari, sof foyda miqdori, muammoli kreditlar salmog‘i va boshqa asosiy indikatorlarni tahlil etib boradi;

- banklar asosiy ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda ularning renkingini aniqlaydi va natijalarini chop etib boradi.

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashda reyting kompaniyasi yuqorida ta’kidlaganimiz kabi banklarni “yirik”, “o‘rta” va “kichik” guruhlarga ajratadi. Tasniflangan banklar aktivlari bo‘yicha umumiyl aktivlari, aktivlar rentabelligi (ROA), kredit portfeli va uning sifati, likvidlilik holati, bank daromadlari va xarajatlari dinamikasi, shuningdek, bank sof foydasi, passivlari bo‘yicha, depozitlar tarkibi, aktsionerlik kapitali, kapital rentabellik darajasi(ROE) va boshqa indikatorlar asosida o‘rganadi, tahlil etadi, banklarning iqtisodiy me’yorlarni bajarish holati va banklar moliyaviy barqarorligi yuzasidan tegishli natijalarni e’lon qilib boradi.

Dunyo banklari tajribasi CAMELS reyting tizimi orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga baho berish amaliyoti keng qo‘llaniladi. Ushbu reyting tizimi orqali banklar kapitali va uning etarligi, aktivlar sifati, boshqaruv, daromadlilik darajasi, likvidlilik hamda bozor risklariga sezgirlik darajasiga baho berish amaliyoti mavjud. CAMELS reyting tizimi AQSh Federal zaxira tizimi, Depozitlarni sug‘urtalash federal korporatsiyasi va Pul muomalasi nazoratchisi tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

CAMELS reyting tizimi yuqoridagi olti komponentlar asosida baholanadi hamda eng kuchli 1 ball, eng kuchsiz 5 ballgacha baho bilan baholanadi. CAMELS reyting tizimi orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga quyidagi umulashgan jadval natijalari orqali baho beriladi.

3-jadval

CAMELS reyting tizimi orqali tijorat banklari molivaviy holatiga reyting berish natijasi

Nº	CAMELS reyting tizimi bo‘yicha umumiyl bali	Bank reytingi
1.	1 – 1,4 ball oralig‘ida	kuchli
2.	1,5 – 2,4 ball oralig‘ida	qoniqarli
3.	2,5 – 3,4 ball oralig‘ida	o‘rta
4.	3,5 – 4,4 ball oralig‘ida	kritik
5.	4,5 – 5,0 ball oralig‘ida	qoniqarsiz

3 - jadval ma’lumotlaridan CAMELS reyting tizimi orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligiga “kuchli” reytingdan “qoniqarsiz” reytinggacha bo‘linishini ko‘rishimiz mumkin. Tijorat banklari har bir komponentni chuqur tahlil etishi, uni o‘rganishi, asosiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash choralarini ko‘rib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, ko‘p vaqtlar davomida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini aniqlashda ularning yalpi aktivlari va yalpi depozitlari umumiyl summasiga e’tibor qaratib kelingan. Lekin, bugungi kunda xorijiy davlatlar amaliyotida banklar moliyaviy barqarorligini aniqlashda, kapitallashuv eng asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Kapitallashuv darajasi oddiy aktsiyalar bozor bahosining muomaladagi aktsiyalar soniga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Shu bilan birga, amerikalik iqtisodchi-olim J.Sinkining fikricha, tijorat banklari reytingida yalpi aktivlari umumiyl summasi va ular kapitallashuv darajasi reytingi mos kelmasligi ta’kidlaydi.

Misol uchun, Bank of New York banki 37 mlrd. AQSh dollari kapitallashuvi bilan 6-o'rinni egallagan bo'lsa, aktivlar umumiyligi summasi bo'yicha 77 mlrd. AQSh dollari bilan 15-o'rinni egallagan.

Xulosa o'rnida, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini o'rganish natijasida, xalqaro tashkilotlar, xalqaro va mahalliy reyting agentliklari, olimlarning mazkur masala yuzasidan ilmiy tadqiqotlaridan aniqlanishicha, banklar kapitali va uning etarliligi, aktivlar va kreditlar sifati, bank foydalilik va samaradorlik darajasi, likvidlilik holati, risklilik darajasi eng ko'p ishlataladigan ko'rsatkichlar sifatida aniqlandi. Demak, yuqorida nomlari keltirilgan indikatorlar majmui orqali har qanday tijorat banklari moliyaviy barqarorlik holatini aniqlash va unga baho berish mumkin degan xulosa shakllandi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158 son "O'zbekiston -2030 strategiyasi to'g'risida" Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni
3. Сюзан Чишти, Янош Барберис. Финтех: Путеводител по новейшим финансовым технологиям //Алпина Паблишер. 2017. 343 с.
4. Bingui Wu, Tingting Duan. The Application of Blockchain Technology in Financial markets// Journal of Physics Conference Series 1176 (4):042094 March 2019.
5. Миронова Д.Д. Шершова Е.В. Развитие современных банковских технологий в условиях цифровой трансформации экономики Российской Федерации // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2020. – № 4-3. – С. 378-384
6. Moliya va bank ishi. Elektron ilmiy jurnal.// 2/2020.
7. Abdulazizovich, Abduvakhidov Akmal, and Kamilova Sanobar Mirdjamolovna. "ISSUES OF BANKING SYSTEM DIGITALIZATION IN UZBEKISTAN." *World Bulletin of Management and Law* 11 (2022): 14-19.
8. Abdulazizovich, Abduvoxidov Akmal, and Obilov Mirkomil Rashidovich. "RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYAVIY BOZORGA TA'SIRI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 71-75.